

Adib Sobir Termiziy

Adib Shahobiddii Sobir binni Ismoil Termiziy XII asrda yashagan allomalardan. U Termizdai Hirotga kelib, Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Sulton Sanjar uni Xorazmshoh Otsiz saroyiga elchi qilib jo'natadi. Lekii u ikki hukmdor o'rtasidagi raqobat va dushmanchilikning qurboni bo'ladi. Xorazmshoh Otsizning buyrug'i bilan Adib Sobirning qo'l-oyog'ini bog'lab, Jayhunga otishadi.

Shoirdan g'azallar, qasidalar, tarjebandlar, qit'alar, ruboiylardan iborat devon meros bulib qolgan. Adib Sobir ruboiylari ana shu boqiy merosning go'zal bir parchasidir.

Ruboiyot

1

Biz erdigu bog' erdi, sharobi gulgun,  
Chun ko'rdi, xasad etdi o'shal garduni dun.  
Kim isig'i quvdi bizni bog'din, emdi,  
Sardoba, o'zing lutfi karam ayla bugun.

2

Soqiy menga tutsa ul mayi gulgunni,  
Gulgun etayin firoqidin Jayhunni.  
Yer ustiga ko'z yoshim ila boda berib,  
Ham mast etayin yer ostnda Qorunni.

3

Tun tongga ulansa, hal bo'lib matlabimiz,  
Ham burji sharaf ichra yonib kavkabimiz.  
Ham bitsa shikoyat, shirin o'lsa labimiz,  
Shay o'lsa zafar jabdug'idin markabimiz.

4

Ey, kunduzing aylamish makon tun ichra,  
Zulfing dag'i tunga soyabon tun ichra,  
Hal etmasa kunduzing tunim mushkulini.  
Sendin chekayin nola-fig'on tun ichra.

5

Ey, moyayi har latofat, ey durri xushob.  
Otash kabi har so'zingda ko'p etma itob.  
Otash ila suv desam seni, rost-savob,  
Otash kabi sofsenu aziz misli gulob.

6

G'amzang o'kidin balo paykonlig' bo'ldi,  
Nomingni bitib, jafu unvonlig' bo'ldi.  
Har neki jafoni sendan o'rgandi falak.  
Xo'b bo'lmadi bu ishiig, yomonlig' bo'ldi...

7

Bul kecha umid toshiga toshimni ko'yay.  
To labingga lab, qoshingga qoshimni qo'yay,  
Sen yoshli ko'zimga qo'y oyog'ingni, sanam.  
Men ersam eshik tubiga boshimni qo'yay.

8

Nargis ko'zing ul qadar zabun etdi meni,  
Ko'nglim bog'idin quvdi, yupun etdi meni,  
Ham misli binafsha sarnagun etdi meni,  
Gul chehrasidek tamomi xun etdi meni.

9

Yor furqati birla dili noshodim bor,

Yod aylamas ul yorni tilab yodim bor.  
Bir yor dilidin hazor bedodim bor,  
Faryod etayin, ko'ngilda faryodim bor.

10

Ko'nglim tilab ul la'li shakarbor, ketdi,  
Boz istadi, dil quvvati takror ketdi.  
Umrin bo'yi hosil etganim ilmu xirad  
La'lingni tilab hammasi bir bor ketdi.

11

Jono, labu g'amzang ko'yiniig sharbati mo'l,  
Rost, rohati mo'l uning, vale ofati mo'l.  
G'amzang ila la'ling dilbariston, sanam,  
Ozori agar ersa, yana rohati mo'l.

12

Voh, bo'yla qiyomat etmasa netdi sanam,  
Kim ko'zimni yosh ayladiyu ketdi sanam.  
Bir azmi safar-la ul aziz chehrasini  
Jon birla ko'zimdin ham aziz etdi sanam.

13

Amringda agar ne'mati yuz narvezdir,  
Izmingda-chi, ikki yuz bedov shabdezdin.  
Qo'y kibru havoni, berma hukmingga shitob,  
Ki gardishi ro'zgor sho'rangezdin.

14

Chehrang nuridin hamisha kunduz ravshan,  
Tun zulmat o'lur o'shal qaro zulfing ilan.  
Ishqing tunu kun meni chunon etdi zabun,  
Kun lashkari yetgaymu menga, bilmasma.

15

Ey, sensiz o'lib yiroq ko'zimdin uyqum,  
Noz uyqung uchun uyquni ko'zdin quvdim.  
Ishqingda ishimdir uyqusizlik, sanamo,  
Ko'z yoshim ila uyquni ko'zdin yuvdim.

16

Do'st ahdini buzdi, dil ko'tardi isyon.  
Dedimki, na hojat ishq agar bo'lsa chunon.  
Ul nargisi mast ishq yetishdi nogah,  
Tug'yonli ko'ngil go'shasini tutdi makon.

17

Har neki tilarmen, u qadar imkon yo'q,  
Diltang erurmanki, anga poyon yo'q.  
Dil tangligidin qutulmoq oson ermas,  
Darmoni sabr emish, vale darmon yo'q.

18

Xurshidki, jilo berib shafaqning o'tiga.  
Yoqut yasadi, boqib labing barqutiga.  
Har kimki labinga yetdi, yoqut tilamas,  
Yoqut dag'i qul emish labing yoqutiga.

19

Dushman-ku dilozor, qolishmas do'st ham,  
Kim ikkisini yetar menga ranju alam.  
Tan tashvishu g'am chekar esa, jonga ne bok?  
Po'st tashvish agar chekar esa, mag'zga ne g'am?

20

Ko'ngling-ku vafo bilan qovushmas hargiz,  
Nazdingda yana dushmanu do'st ham farqsiz,  
Bas-baski, shikoyating sira joiz emas,  
Bor-borki, hikoyating dag'i nojoiz.

21

Dedimki, yetar, ishq bila korim bitdi,  
Chun yuzingni ko'rdimu qarorim yitdi.  
So'zimga agar yurmas esam, uzrim bor,  
Naylayki, qo'limdin ixtiyorim ketdi...

22

Ishqing, sanamim, tutdi girebon, oldi,  
Aqlimni etib har sari sarson, oldi.  
Savdoyi ko'yning mulki dili jon oldi,  
Har nechaki istadi, du chandon oldi.

23

To xushvaqt emish ushbu zamonda gumroh,  
Xush ko'rmas emish aqlu xiradni dunyo.  
Kel, aqlu xiradni ol boshimdin, ey do'st,  
Shoyadki, zamona biz sari boqsa qiyo...

24

Men senga boqarmen, senga boqqanda, saiam,  
Qolmas nazarimda bu ko'ngil mulkida g'am.  
Men sen-la icharmen, sen-la ichganda, saiam,  
Qo'rqmay o'tamen malomatdin ham.

25

Boshimga ajab qiyomati ishq yetdi,  
Boqqanda ko'zim tinib, qamoshib ketdi.  
Ham soldi dilimga ishq ajab tashvishu g'am,  
Ham ikki yuzimga nomini naqsh etdi.

26

Hajrintki vabo emish, baloyi-yut emish,  
Yetgan yerida umri hayot soqit emish.  
Har lahza labingga ko'z tikarman, ey gul,  
Derlarki, "vabo kushandasi yoqut emish".

27

To qahri itobing menga yuzlandi yomon,  
Xok etdi tanimni, har taraf sochdi hamon.  
Ishqing ko'yida dilim kuyib, chekdi fig'on,  
Kim oqdi ko'zim kiprigidin obi ravon.

28

Yuzing hama nurdin rivoyat aylar,  
Husnig hama hurdin hikoyat aylar.  
Vaslingga boqar esam, hushim boshdin uchar,  
Oshifaligimni u bag'oyat aylar.

29

Ko'nglim yana bir sanam sari mayl etmas,  
Ko'nglim sarig'a boshqa sanam ham yetmas,  
Kim, o'zgaga dil berish menga ma'zur emas,  
Dildori nisandida karam aylasa, bas.

30

Yuzing, sanamo, dudsiz olovga o'xshash,  
Ko'nglim dedikim: "bo'lurmu dilsiz otash?"  
Xatting ko'rinish misoli otash dudidek,  
Ishqimni yana ayladi hadsiz otash...

31

Gul chehrasi chehrangni ko'rib, ol, aqiq,  
Og'zing g'amidin g'uncha bo'libdir og'riq.  
Husning chamani birovnini chin oshiq etib,  
Ham ko'ngilni zor ayladi, rangini sariq.

32

Ul gulki, bahor sahnini bo'ston aylar,  
Men misoli kaldiroq, dilim qon aylar.  
Chaqmoq kabi har nafas ajib xanda otib,  
Chun bulutdek yig'lashimga farmon aylar.

33

Xattingki, menga ko'rsatdi hijron yuzini,  
Ham ochdi ko'zimda yuz buloqning ko'zini.  
Zulfing, sanamo, yetmasa dodimga agar,  
Bir ud kabi olovda ko'rsin o'zini...

34

Rang olgan o'shal lola yuzingdin guldir,  
Domingga asiru banda bu ko'ngildir.  
Diltangman o'shal g'uncha dahoningni tilab,  
Har kimki senga bersa ko'ngil, bedildir.

35

To boqmasa mayga diyda ravshan bo'lmas,  
To ichmasa may dil dag'i gulshan bo'lmas.  
Dersanki, "ko'ngildin may olur xushu hirad",  
Keltur anikim, bo'lmasa, ko'ngil to'lmas.

36

Ishqingda ishim nola erur yozi qishi,  
Yondirmog'i kuydirmoq emish ishq ishi.  
Ne oshiq emish ulki, chu ishqing tilamas,  
Evohki, shakarni ham zahar dermi kishi?

37

Ul yorki mudom va'dani yolg'on aylab,  
Bu joni dilimni oldi o'ynab-o'ynab.  
Tunlarni uzun etdi menga ishq bilan,  
Oshiq tuni ko'p uzun bo'larmish, yo Rab!

38

Yashnab-ochilibsan, ey nigor, ey dilbar,  
Sensizdir ishim nolayu zor, ey dilbar.

Yuzing yorishib misli bahor, ey dilbar,  
Husning dag'i ul bahorcha bor, ey dilbar.

39

Dunyoga barobar emish u - tulkimi, sher,  
Hech kimsaga yo'q baqo - qo'rqoqmi, daler .  
Ko'rdingmi, kschang kabi o'tib ketdi kuning,  
Ertang dag'i o'tgay, bunga bovar qilaver.

40

Bir dona tishing tushibdi, ey oyjamol,  
Shundanmi yuzingdan rang siniq, o'zgacha hol.  
Bir tishga sumanbar, shu qadar tashvishmi?  
Bnr dur kamayibdir sadafdin, ne malol.

41

Daryoda baliq kabi suzib, o'ynar g'oz,  
O'rdak bila o'xshashlish bor, siynafaroz .  
Har chandki, erinmay kun bo'yi suvda suzar,  
Sohilga, sheriklar yoniga qaytar boz.

42

Ne bo'ldi firoq ichra ziyonim, so'rama,  
Ne chekdi kuyib g'amingda jonim, so'rama.  
Nelar ko'yida uchdi fig'onim, so'rama,  
Ne bo'ldi ishim, shudir jahonim, so'rama.

43

Har chandki faqir erur agarchi dono,  
Ko'rgil uni boyi bexiraddin a'lo.  
U boyligi yo'q edi, davlatmand bo'ldi,  
Bu donish ila hamisha davlatmand shoh.

44

Chehrangga boqib, alamdadir gul bila bog',  
Sensiz menga begona erur ayshu farog'.  
Ko'zim seni deb chekmasa gar hasratu dog',  
Kim yig'lar axir yo'lingda? Ey, ko'zu charog'!

45

Zulfing uchirib ko'zimdin uyqu, tunrang,  
Ey, ohu ko'zim, etma menga kibri palang .  
Bas, jismu dilimga aylading jabru jafo,  
Zulfing kabi xam bo'ldi u, ko'zing kabi tang.

46

Gar xomush esa bulbul, ey changnavoz,  
Derlarki, yuzingga gul o'zi so'ylar roz.  
Ul bulbulu gulga ko'z tutarmen, yetmas,  
Na ko'zga jamolu na qulog'imga ovoz.

47

Chehrangdin olib nur oftobi kunduz,  
Izmingda yana haqqi savobi kunduz.  
Kunduzki, sanam, tun kabi xatting o'ramish,  
Hay-hay, ayagil, etma xarobi kunduz.

48

Orasta bo'lib zulfu yuzingdin tunu kun,  
Umrin o'tadir quvib izingdin tunu kun.  
Kim, ortiga qaytmas tunu kun, qo'rqarmen,  
Bir yo'la yiroq etma o'zingdin tunu kun.

49

Chehrangdin o'lib hamisha kunduz gulgun,  
Zulfing kabi oshiq tuni ham ko'p uzun.  
To senga, sanam, mehri niyoz aylamasam,  
Men kun bila tun farqini bilmay, dilxun.

50

Har nechaki ko'p uzun kecharkan, sanam,  
Oshiq dilida oshar fig'on, hasratu g'am.  
Soching ko'yida dilimda yo'qdir qayg'u,  
Kim, senga soching kabi uzun tun hamdam.

51

Tong yo'qki, qamashtirur quyoshni shu'lang,  
Vaslingga yetolmayin quyosh ham diltang.  
Nur olsa quyosh agar yuzing shu'lasidan,  
Yoqut u quyosh shu'lasidan olgay rang.

52

Dilbarki, mudom erdi dilimga mahram,  
Jon oldi, mashaqqatimni hech etmadi kam.  
Dil motami ichra xo'p emish sabru qaror,  
Men qaydin olay sabrni, ko'p ersa sitam.

53

Javringni chekib, falak, netay, past bo'ldim,  
Tuproqqa qorishdim, xor ila xas bo'ldim.  
Ey, soqiyi g'am, maying ichib, mast bo'ldim,  
Dermanki, ko'lingni tort, yetar, bas, bo'ldim.

54

Ko'nghlimda umid g'unchayi xandoningdin,  
Chun menga ne g'am jafoyi so'zoningdin?  
Tin olmayin hech jafoyu jakring chekayin,  
Dil uzmayin hech chohi zanahdoningdin.

55

Jonon labi-ku aqiqqa o'xshaydi tamom,  
Har lahza latif yuzi berar ishqima kom.  
Gar ikki kuzim to'kar yana ashki aqiq,  
Chun ishqiq aqiq ko'z bila ko'nghlimda mudom.

56

Chun otash o'lib havoda gar uchgaymiz.  
Ham obi ravon kabi oqib kechgaymiz.  
Tuproq bo'lamiz, agarchi biz gavhar edik,  
Bas, shundoq esa, bodani ber, ichgaymiz.

57

Ko'z yoshima chun g'arq bo'libdir tanim,  
Dil otashidim kuyib tilim ham dahanim.  
Bir dardi firoq ichra qolibdir vatanim,  
Bas, o'zimga bo'lmay, men yana kimga g'anim?

58

Yoding bila tilga nolayu un keladir,  
Ko'z kiprigidin hazor Jayhun keladir.  
Bildingmi, ko'zimdin ne uchun qonlar oqar.  
Kim, ko'zimga ko'nnglim saridindun keladir.

59

Do'stlar, kelingiz, to'yib-to'yib may ichamiz,  
Kunduz kulishib, kulguda kechsin kechamiz.  
Tokay yuramiz kuyib shu olam g'ami deb,  
Olam eli ichra biz axir bir nechamiz...

60

Ishqing o'tig'a dilim sari yo'l berdim,  
Ko'z yoshiyu faryod sari qo'l berdim.  
To bo'ldi dilim ishqu firoqingga asir,  
Tuproq bo'libon sochildimu sovrildim...

61

Darmonim o'zing, bir dili bemorim bor,  
Ko'yingda ham osonimu dushvorim bor.  
Xor etdingu xorligimda topding izzat,  
Tokaygacha bu qiyomati zorim bor?

62

Ey ishq, meni xastaga malham qani?  
Oy yuzli o'shal dilbari mahram qani?  
G'am ilgidaman, nechuk xalos bo'lgaymen?  
Tun tutqinimen, kun kabi hamdam qani?

63

Yuzing-ku aqlni qochirar, may ermas,  
La'ling-ku shakar to'kar, vale nay ermas,  
Zulfingni ko'rib, sanam, nechun dil titrar?  
Yurganda yo'ling ham shakkaristondir, bas.

64

Zulfingni ko'rarda ishq degan tuyg'u kelar,  
Husningni ko'rarda oyga ham ko'zgu kelar.  
Ruhim ochilur gul kabi chehrangni ko'rib.  
Bildingmi, ko'ngilga ne ajab orzu kelar?

65

Gar ko'rdim zsa jabru jafo gardundin,  
U sochdi, qarang, sochimga oppoq undin.  
Tahqir nazari-la aylama menga nigoh,  
Bir qarchig'ay afzal yuz qaro quzg'undin.

66

Yorim ko'zida sharmu hayo bo'lsaydi,  
Rahm aylar edi, bo'lmas edi tosh misol.  
Hijron ko'zida sharmu hayo bo'lsaydi,  
Do'st birla toiar edim ajab vaslu visol.

67

O'n yo'lga yurarsan, o'n diling bor magaram,  
O'n-o'n tugibon, bittasini ochmadingam.  
Siynamdagn birgina yurak, ey oqil,

This is not registered version of TotalDocConverter  
Ushbu dasturlarning yordamida yaratilgan.

68

Jabring u qadar jafoki, aflokka yetar,  
Xusning dag'i oydan ham balanddir, dilbar.  
Gar doirai gardun erursan, ey charx,  
Baxtimni nechun yiroq etarsan bu qadar?